



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No3
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, aprel-may.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BUXGALTERIYA VA EKOLOGIK HISOBOT (ESG HISOBOTLARI).....	21
Abdukirimov Qamariddin Isroiljon o'g'li, Abdurashidov Faxriddin Fazliddin o'g'li, Beknazarov Zafarjon Ergachevich	
YASHIL INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH – BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING ASOSIY YO'NALISHI	26
Yarboyeva Farida Ulug'bek qizi, Yoqubova Zilola To'ra qizi	
RAQAMLI SOLIQ NAZORATINING BUXGALTERIYA TIZIMIGA TA'SIRI	30
Abdulaxatov Mirkomil O'rol o'g'li, Rustamov Davron Rustamovich	
ИННОВАЦИОННЫЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	34
Насиров Дилшод Фархадович, Халманова Шахзода, Кенесбаева Азиза	
O'ZBEKISTON TURIZM TIZIMIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	39
Normurodov X.E., Abdurazakova Farangis Dilshod qizi	
СОВРЕМЕННЫЕ ШКОЛЫ НАУКИ УПРАВЛЕНИЯ И ИХ ОСНОВНЫЕ ИДЕИ.....	44
Латипов Ашур Али Рустам ўғли, Джамолова Хилола Исмаиллаевна	
O'ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	50
Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Shermuxamedov Bexzodjon Usmonovich	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTALARI VA GLOBAL PUL TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	57
Jumanova Shaxlo Boxodir qizi, Shovkatov Nodirjon Ne'matjon o'g'li	
RAQOBAT VA MONOPOLIYA SHAROITIDA BOZOR SAMARADORLIGI HAMDA IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI	62
Yo'ldashaliyev Muxammadaziz Xabibulla o'g'li, Yoqubova Zilola Tura qizi	
ИНВЕСТИЦИИ В ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИКИ	68
Насиров Дилшод Фархадович, Тохинова Азиза Олимжоновна, Исокулова Хуснора алохиддиновна	
FRANCHAYZING FAOLIYATIDA RAQAMLI MARKETING VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI.....	74
Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
AGROINDUSTRIAL BIOMASSANING IKKILAMCHI UTILIZATSIYASI – YOPIQ SIKL IQTISODIY MODELINING INFRATUZILMAVIY TAYANCHI: IQTISODIY-EKOLOGIK MEZONLAR VA MILLIY AMALIYOT.....	80
Kadirova Maraljon Matyakubovna, Eshbekov Murodjon Uktamovich	
ZAMONAVIY TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING MOLİYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	87
Alimov Umid Xamid o'g'li, Rustamov Maqsud Suvonqulovich	
RAQOBATLASHMAGAN BOZOR SHAROITIDA NARX BELGILASH TAMOYILLARI.....	92
G'aniyev Fayzbek Abduxamid o'g'li, Jumanazarov Og'abek Ahmadjon o'g'li, Shukurov Tahirjon Izzatullo o'g'li	
DEVELOPMENT OF LEGAL REGULATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE	104
Akhrorova Munavvar Farkhod kizi, Abdalimov Orzubek Tuychibek o'g'li, Samiyev Damir Ahmad o'g'li, Rakhmonov Umrzoq Otaboy o'g'li	



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA BANK KREDITLARINING AHAMIYATI.....	112
Ubaydulloyeva Rayhona Fahriddin qizi, F.U.Umarov	
O'ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASINI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	119
Raxmonova Sabina Navro'z qizi, Nazar Nazarov G'ulomovich	
TARMOQ TUZILMASINI SHAKLLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING AHAMIYATI	124
Samadova Solik qizi, Normurodov Husan	
TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI XIZMATLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	130
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li, Karimov Umrbek Javlonbek o'g'li	
ISLOM MOLIYASINI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI.....	137
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
XALQARO VA MILLIY BUXGALTERIYADA NOMODDIY AKTIVLARNI HISOBGA Olish, BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	141
Axmetova Nasiba Axmetovna, Mavlanov Normo'min Normamatovich	
URBANIZATSIYA SHAROITIDA TRANSPORT MARKETINGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	147
Iskandarov Qudrat Shuxratovich, Ataniyazova Zarina Niyetbay qizi	
IQTISODIY ATAMALARNING O'ZBEK TILIDA SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	154
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Salamova Oliya	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HAJMI, OMILLARI VA UNI KAMAYTIRISH YO'LLARI.....	158
Tohirova Gulnoza Zokirovna, Tillayev Xurshidjon Sulaymon o'g'li	
RAQAMLI BANK TIZIMLARI VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR (FINTECH)NING AN'ANAVIY BANKLARGA TA'SIRI.....	164
Shermuxe'dov Bexzodjon Usmonovich, Qosimova Fazilat Sherzod qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING AXBOROT BOZORIGA TA'SIRI: MAHSULOT VA MEHNAT BOZORIDAGI O'ZGARISHLAR.....	170
Mo'y'dinjonova Durdonaxon Ilhomjon qizi, Ismanov Ibrohim Nabiye'vich	
ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA.....	175
Axmedov Xasan Ruzibaye'vich, Ruzibaye'va Karima Shavkat qizi, Abdumalikova Busalima Abduvali qizi	
SARATON KASALLIGIDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA: "5 OLAM" MODELINI KENGAYTIRISH VA AMALIY QO'LLASH	182
Salayeva Laylo Shavkatovna, Toshtemirov Doston Tohirjon o'g'li	
THE CHALLENGES OF MANAGING CROSS-FUNCTIONAL TEAMS IN PHARMACEUTICAL PROJECTS	187
Murodova Feruzakhon Talatovna	
GREEN ECONOMY AND GREEN INVESTMENT: SUSTAINABLE AS A MAIN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH.....	194
Tursinov A.J., Jalgasbaeva J.A., Axmetova U.M.	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING AHAMIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	199
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich, Dilmurodov Komiljon Ahmad o'g'li	
O'ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI.....	204
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna, Baxronov Timur Rustamovich	



O'ZBEK TILINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: dilyuldasheva83@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3898-2113

Baxronov Timur Rustamovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
MK-225-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. O'zbek tili turkiy tillar oilasining muhim vakillaridan biri sifatida uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Tadqiqot davomida qadimgi turkiy davr, eski turkiy adabiy til, eski o'zbek tili (chig'atoy tili) hamda zamonaviy o'zbek tili bosqichlari izchil ravishda ko'rib chiqiladi. Har bir bosqichning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy va tarixiy omillarning til taraqqiyotiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, tarixiy taraqqiyot, qadimgi turkiy til, chig'atoy tili, eski o'zbek tili, zamonaviy o'zbek tili, til evolyutsiyasi, turkiy tillar, lingvistika.

Abstract: This article analyzes the stages of the historical development of the Uzbek language on a scientific basis. As one of the important representatives of the Turkic language family, the Uzbek language has undergone a long process of historical evolution. The study consistently examines the stages of the Ancient Turkic period, the Old Turkic literary language, the Old Uzbek language (Chagatai language), and the modern Uzbek language. The phonetic, lexical, and grammatical features of each stage, as well as the influence of socio-historical factors on language development, are highlighted.

Key words: Uzbek language, historical development, Ancient Turkic language, Chagatai language, Old Uzbek language, modern Uzbek language, language evolution, Turkic languages, linguistics.

Аннотация: В данной статье этапы исторического развития узбекского языка анализируются на научной основе. Узбекский язык, являясь одним из важных представителей тюркской языковой семьи, прошёл длительный путь исторического развития. В ходе исследования последовательно рассматриваются этапы древнетюркского периода, древнетюркского литературного языка, староузбекского языка (чагатайского языка) и современного узбекского языка. Освещаются фонетические, лексические и грамматические особенности каждого этапа, а также влияние социально-исторических факторов на развитие языка.

Ключевые слова: узбекский язык, историческое развитие, древнетюркский язык, чагатайский язык, староузбекский язык, современный узбекский язык, эволюция языка, тюркские языки, лингвистика.

KIRISH

O'zbek tili turkiy tillar oilasining qarluiq va qipchoq lahjalari kesishgan murakkab tarixiy-lingvistik hududda shakllangan bo'lib, uning taraqqiyoti ko'p asrlik ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Tilning shakllanishi va rivojlanishi nafaqat ichki lingvistik qonuniyatlar, balki tashqi tarixiy omillar, xususan, qadimgi turkiy qabilalarning migratsiyasi, davlatlarning shakllanishi hamda yozuv tizimlarining almashinuvi bilan ham belgilanadi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, o'zbek tilining ildizlari qadimgi turkiy davrga borib taqaladi. Orxon-Enasoy bitiklari va boshqa qadimgi yozma manbalar turkiy tillarning dastlabki yozma shakllarini aks ettirgan bo'lib, ular keyingi davrlarda shakllangan o'zbek adabiy tiliga muhim asos bo'lib xizmat qilgan [1]. Shu bilan birga, XI-XII asrlarda



Yusuf Xos Hojibning Qutadg'u bilig asari hamda Mahmud Koshg'ariyning Devonu lug'otit-turk asari tilning leksik va grammatik rivojlanishida muhim bosqich sifatida e'tirof etiladi.

O'rta asrlarda esa chig'atoy adabiy tili shakllanib, u Alisher Navoiy ijodi orqali yuqori darajadagi adabiy norma sifatida mustahkamlandi. Bu davr o'zbek tilining fonetik, morfologik va sintaktik tizimining shakllanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan [2]. Keyinchalik, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Jadidchilik harakati ta'sirida tilning modernizatsiya jarayoni boshlanib, zamonaviy o'zbek adabiy tilining shakllanishiga zamin yaratdi.

Zamonaviy davrda o'zbek tilining rivojlanishi nafaqat ichki milliy ehtiyojlar, balki globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va xalqaro kommunikatsiya jarayonlari bilan ham chambarchas bog'liq holda davom etmoqda. Tilning yozuv tizimi ham arab grafikasidan lotin va kirill alifbolariga o'tish bosqichlarini boshdan kechirgan bo'lib, bu jarayon uning tarixiy evolyutsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini ilmiy asosda o'rganish uning bugungi holatini chuqur anglash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi o'zbek tilining tarixiy evolyutsiyasini bosqichma-bosqich tahlil qilish hamda har bir davrning til tizimiga qo'shgan hissasini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari masalasi turkiyshunoslik va o'zbek tilshunosligida eng ko'p o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu boradagi ilmiy adabiyotlar tilning qadimgi davrlardan boshlab hozirgi holatigacha bo'lgan rivojlanish jarayonini turli metodologik yondashuvlar asosida tahlil qiladi. Mazkur mavzu doirasida klassik filologik tadqiqotlar, tarixiy-lingvistik izlanishlar hamda zamonaviy korpus lingvistikasi yondashuvlarini o'z ichiga olgan keng ilmiy baza shakllangan.

O'zbek tilining qadimgi turkiy ildizlari bo'yicha dastlabki fundamental tadqiqotlardan biri sifatida Mahmud Koshg'ariyning Devonu lug'otit-turk asari alohida ahamiyatga ega. Ushbu asarda XI asr turkiy tillarining leksik-semantik va dialektologik xususiyatlari ilk bor tizimli ravishda yoritilgan [3]. Mazkur manba turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining tarixiy rekonstruksiyasida asosiy ilmiy manbalardan biri sifatida baholanadi.

XX asr tilshunosligida o'zbek tilining tarixiy rivojlanishi A.N. Kononov, E. Fozilov hamda G'. Abdurahmonov kabi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Xususan, G'. Abdurahmonovning ilmiy ishlari qadimgi turkiy til va eski o'zbek adabiy tilining fonetik hamda grammatik tizimini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, bu tadqiqotlar o'zbek tilining tarixiy davrlanish konsepsiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutgan [4].

Chig'atoy adabiy tili va Alisher Navoiy ijodi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa eski o'zbek tilining me'yorlashuv jarayoni chuqur tahlil etiladi. Bu yo'nalishda N. Mallayev, A. Rustamov hamda S. Mutallibovlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotlarda Navoiy tilining fonetik va leksik boyligi o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi [5].

Zamonaviy tilshunoslikda esa o'zbek tilining rivojlanishi ijtimoiy-lingvistik yondashuv asosida o'rganilmoqda. Bu yo'nalishda til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, globalizatsiya jarayonlarining tilga ta'siri hamda yozuv tizimlarining almashinuvi — arab, kirill va lotin grafikalarining qo'llanishi alohida tadqiq etilmoqda. Xususan, M. Jo'rayev va boshqa zamonaviy olimlar o'zbek tilining hozirgi rivojlanish bosqichini raqamli kommunikatsiya va mediatizatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil qilganlar.

Shuningdek, xalqaro turkiyshunoslik maktabi vakillari — N. Baskakov, S. Malov va boshqa olimlarning ishlari ham o'zbek tilining umumturkiy tizimdagi o'rnini aniqlashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [6]. Ularning tadqiqotlari turkiy tillar tasnifi hamda tarixiy evolyutsiyasini yoritishda keng qo'llaniladi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari masalasi kompleks yondashuvni talab qiladigan ko'p qirrali ilmiy muammo hisoblanadi va u turli davrlarda turli metodologik yondashuvlar asosida o'rganib kelinmoqda. Biroq zamonaviy lingvistika nuqtai nazaridan ushbu bosqichlarni yagona tizim sifatida integrativ tarzda tahlil qilish zarurati hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash va tahlil qilishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-lingvistik, tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tarixiy hamda korpus lingvistikasi usullarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvlar til evolyutsiyasini nafaqat statik, balki dinamik jarayon sifatida o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqotda zamonaviy korpus lingvistikasi elementlari ham qo'llanildi. Elektron matnlar bazasi va raqamli lingvistik resurslar orqali o'zbek tilining turli davrlarga oid matnlari tahlil qilinib, leksik chastota hamda semantik o'zgarishlar kuzatildi. Bu esa til evolyutsiyasini empirik ma'lumotlar asosida ilmiy jihatdan asoslash imkonini yaratdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilish natijasida til evolyutsiyasi uzluksiz, ko'p qatlamli va murakkab jarayon ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida tilning qadimgi turkiy ildizlardan boshlab zamonaviy adabiy standartgacha bo'lgan rivojlanish yo'li fonetik, morfologik, leksik va sintaktik darajalarda tizimli o'zgarishlar orqali shakllanganligi kuzatildi. Bu jarayon nafaqat ichki lingvistik qonuniyatlar, balki tashqi tarixiy va madaniy omillar bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Qadimgi turkiy davr (VI–X asrlar) tahlili shuni ko'rsatadiki, bu bosqichda tilning grammatik tizimi nisbatan barqaror bo'lib, agglutinatív tuzilma ustunlik qilgan. Orxon-Enasoy bitiklarida sintaktik tuzilmalar qisqa va ixcham bo'lib, fikrlar ko'pincha sodda gaplar orqali ifodalangan. Bu davrda leksik qatlam asosan turkiy ildiz so'zlardan tashkil topgan.

XI–XIII asrlarga kelib, eski turkiy adabiy til shakllanishi jarayonida islom sivilizatsiyasining ta'siri kuchaydi. Natijada arab va fors tillaridan kirib kelgan o'zlashmalar ilmiy, diniy hamda falsafiy terminologiyaning sezilarli darajada kengayishiga sabab bo'ldi. Bu holat o'zbek tilining leksik qatlamini boyitib, uning funksional uslublarini shakllantirishga zamin yaratdi [7].

Chig'atoy tili (eski o'zbek tili) davri (XIV–XIX asrlar) o'zbek tilining tarixiy taraqqiyotidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda Alisher Navoiy ijodi orqali adabiy tilning yuqori me'yorlari shakllandi. Navoiy asarlarida turkiy so'z boyligi bilan bir qatorda fors-arab unsurlarining uyg'unlashuvi natijasida murakkab sintaktik tuzilmalar va boy stilistik vositalar yuzaga kelgan. Mazkur bosqich o'zbek adabiy tilining normativ asoslarini shakllantirishda muhim o'rin tutdi.

XX asrga kelib esa o'zbek tilining zamonaviy bosqichi shakllanishida ijtimoiy-siyosiy omillar, xususan, sovet davri til siyosati hamda keyinchalik mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlar muhim rol o'ynadi. Kirill va lotin yozuvlari o'rtasidagi o'tish jarayoni tilning grafik tizimida bir necha bosqichli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu esa fonetik moslashuv va orfografik me'yorlashuv jarayonlarini jadallashtirdi [8].

Zamonaviy davrda o'zbek tilining leksik tizimi globalizatsiya ta'sirida ingliz tilidan kirib kelayotgan yangi terminlar hisobiga yanada kengaymoqda. Ayniqsa, texnologiya, iqtisodiyot va internet kommunikatsiyalari sohalarida yangi so'z va atamalar faol qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, tilning ichki imkoniyatlari asosida yangi termin yaratish jarayoni ham izchil rivojlanmoqda.

Quyidagi jadvalda o'zbek tilining tarixiy bosqichlarida kuzatilgan asosiy lingvistik o'zgarishlar umumlashtiriladi (1-jadval).

1-jadval. O'zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlari bo'yicha lingvistik o'zgarishlar tahlili¹

Bosqich	Davr	Fonetik xususiyatlar	Leksik xususiyatlar	Sintaktik xususiyatlar	Asosiy ta'sir omillari
Qadimgi turkiy til	VI–X asrlar	Sodda fonema tizimi, unli uyg'unligi kuchli	Turk ildiz so'zlari ustun	Sodda gaplar, parataktik tuzilma	Qabila tuzumi, Orxon madaniyati
Eski turkiy til	XI–XIII asrlar	Ba'zi fonetik o'zgarishlar	Arab-fors o'zlashmalari kirishi	Murakkablashayotgan sintaksis	Islom sivilizatsiyasi
Chig'atoy tili	XIV–XIX asrlar	Barqaror fonetik tizim	Boy adabiy leksika	Murakkab sintaktik konstruktsiyalar	Navoiy maktabi, Temuriylar
Zamonaviy o'zbek tili	XX–XXI asrlar	Standart fonetik tizim	Inglizcha va texnik terminlar	Normativ sintaksis	Globalizatsiya, texnologiya

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili rivojlanishining har bir bosqichi oldingi davr tajribasi va lingvistik asoslariga tayangan holda yangi til qatlamlarini shakllantirgan. Ayniqsa, chig'atoy davri o'zbek adabiy tilining me'yorlashuvi va badiiy uslubiy imkoniyatlarining kengayishida muhim poydevor vazifasini bajargan bo'lsa, zamonaviy bosqich tilning funksional kengayishi hamda xalqaro kommunikativ maydondagi integratsiyasini ta'minlamoqda.

Shuningdek, tadqiqot davomida o'zbek tilining evolyutsiyasi faqat ichki lingvistik tizim asosida emas, balki tarixiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlar bilan ham uzviy bog'liq holda rivojlanganligi ilmiy jihatdan asoslandi.

1 Muallif ishlanmasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti murakkab, ko'p qatlamli va uzluksiz evolyutsion jarayon hisoblanadi. Tahlillar o'zbek tilining qadimgi turkiy til tizimidan boshlab zamonaviy adabiy standartgacha bo'lgan rivojlanish jarayonida bir nechta muhim bosqichlarni bosib o'tganligini tasdiqlaydi. Har bir tarixiy davr tilning ichki strukturasi sezilarli ta'sir ko'rsatib, uning fonetik, leksik va grammatik tizimini bosqichma-bosqich boyitgan.

Qadimgi turkiy davrda tilning asosiy strukturasi sodda va agglutinatib xarakterga ega bo'lgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda, xususan, eski turkiy hamda chig'atoy davrida arab va fors tillarining ta'siri natijasida leksik boyish va stilistik murakkablashuv jarayoni kuchaygan. Bu esa o'zbek tilining funksional imkoniyatlarini kengaytirib, uning mukammal adabiy til sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratgan.

Zamonaviy bosqichda esa o'zbek tilining standartlashuvi, yozuv tizimining takomillashuvi hamda global kommunikatsiya jarayonlariga integratsiyalashuvi kuzatilmoqda. Ayniqsa, ingliz tilidan kirib kelayotgan yangi terminlar va raqamli kommunikatsiya vositalarining ta'siri tilning leksik tizimini muntazam ravishda boyitib bormoqda.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- o'zbek tilining qadimgi davrlariga oid yozma yodgorliklarni yanada chuqurroq o'rganish hamda ularni zamonaviy lingvistik metodlar asosida qayta tahlil qilish zarur;
- o'zbek tilining barcha tarixiy bosqichlarini qamrab olgan raqamli korpus yaratish til evolyutsiyasini aniq va empirik ma'lumotlar asosida tadqiq etish imkonini beradi;
- zamonaviy o'zbek tiliga kirib kelayotgan xorijiy terminlar uchun milliy ekvivalentlar yaratish va ularni standartlashtirish bo'yicha ilmiy ishlarni kuchaytirish lozim;
- oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti bo'yicha maxsus kurslar va o'quv qo'llanmalarini kengaytirish maqsadga muvofiq;
- sun'iy intellekt va raqamli platformalarda o'zbek tilining tarixiy hamda zamonaviy variantlarini integratsiya qilish tilning xalqaro kommunikativ imkoniyatlari va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti nafaqat lingvistik jarayon, balki keng ijtimoiy-madaniy va tarixiy omillar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab tizim ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Davlat tili haqida Qonun. – Yangi tahrir, 2024-yil 27-dekabr. – URL: [Lex.uz](https://lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.10.2020-yildagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5058351>
3. Muxammadiyeva T.M., Arolova M.B. O'zbek tilining tarixiy ildizlari // Universal Science Perspectives Journal. – 2024. – URL: [Universal Science Perspectives Journal](https://www.universal-science.org/)
4. Abdurahmonov G', Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
5. Devonu lug'otit-turk / Mahmud Koshg'ariy. – Toshkent: Fan, 1960.
6. Abdurahmonov G'. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
7. Mallayev N. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 1973.
8. Baskakov N.A. Introduction to the Study of Turkic Languages. – Moscow: Nauka, 1969.
9. Devonu lug'otit-turk / Koshg'ariy M. – Toshkent: Fan, 1960.
10. Jo'rayev M. O'zbek yozuv tizimi evolyutsiyasi // Filologiya jurnali. – 2025. – URL: [Filologiya jurnali](https://filologiya.jurnali.uz/)
11. Bekmurodovna Y.D., Bakhodirovich E.D. Problems in the Era of Globalization and Innovative Solutions to Them // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Vol. 11, Issue 4. – P. 329–331.
12. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining lingvistik tahlili. – Toshkent: O'ZMU, 2005. – 256 b.
13. Yulbarsov O., Yunusova D. O'zbek tilida iqtisodiy terminologiyaning rivojlanishi va lingvistik masalalari // Nordic University ilmiy jurnali. – 2025. – №1. – B. 45–52.
14. Yuldasheva D.B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorliklarda o'zbek tilini rivojlantirishning bugungi kundagi dolzarbligi // International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory. – 2023. – Vol. 1, Issue 9. – B. 196–200.
15. Qodirov U.O. The Main Sources of Formation of Economic Terminological Systems in the Russian and Uzbek Languages // International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2025. – Vol. 12, Issue 4. – P. 396–399.
16. Yuldasheva D.B. Lingvistika: istoriya, osnovnye ponyatiya i poslednie razvitiya // Aktualnye problemy metodiki prepodavaniya russkogo yazyka. – II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 387–390.
17. Iqtisodiy atamalar lug'ati / Tuzuvchi: A. Rasulov. – 2-nashr. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015. – 280 b.
18. Yuldasheva D.B. Razvitie liderskix navykov: kak stat uspeshnym rukovoditelem // Science Shine. – 2024. – Issue 12. – B. 92–97.
19. Moliyaviy atamalarning izohli lug'ati / Tuzuvchilar: Sh. Shodmonov, M. Bo'riboyev. – Toshkent: Sharq, 2018. – 320 b.
20. Yuldasheva D. Important Features of Teaching Tourism Lexis and Literacy to International Students // Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. – B. 205.
21. O'zbekiston iqtisodiyotining terminologik lug'ati / Tuzuvchilar: N. To'xliyev, B. Qodirov. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2023. – 360 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

3-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>